

## **GIYOHVANDLIK DELINKVENT XULQ SIFATIDA NAMOYON BO‘LISHI**

**Turg‘unova Ziyoda G‘ayrat qizi**

*Toshkent davlat transport universiteti 2-kurs talabasi*

**Nazarova Nilufar Jo‘rayevna**

*Toshkent davlat transport universiteti katta o‘qituvchisi, ilmiy rahbar*

**Annotatsiya.** *Maqolada giyohvandlik tushunchasining mazmun-mohiyati, narkotik moddalarga o‘rganib qolishning holatlari, sabablari keltirib o‘tilgan. Giyohvand moddalar qabul qilinganda inson salomatligiga salbiy ta’sirlari tahlil etilgan. Zamonaviy yoshlarning psixotrop moddalarni qabul qilish kuchayib borayotganligi statistik ma’lumotlar asosida berilgan.*

**Tayanch so‘zlar:** *narkomaniya, eyforiya, jismoniy va ruhiy holat, moyillik, psixotrop moddalar, ma’naviy tarbiya, iroda tarbiyasi.*

Giyohvandlik (narkomaniya) - (yunoncha narke - karaxtlik va maniya - telbalik, jahl, shodhurralik) narkotik va narkotik ta’sirga ega bulgan moddalarni iste’mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik. Odamzot giyohvandlik bilan qadimdan tanish bo‘lib, uni turli xil maqsadlarda: dorivor sifatida – og‘riqni qoldirish, kuchni saqlash, uyqu keltirish maqsadida, ibodat marosimlarida - diniy o‘tish davrida, “ongiy o‘zgarish” holatidan o‘tish uchun, g‘ayratni oshiruvchi modda sifatida – jangovar harakat vaqtida, gangitadigan modda sifatida, sababsiz xursandchilik, katta zavq-shavq, xursandchilik (“Eyforiya”, “Kayf” - millatlararo narkomanlar tilida) holatiga keltirishda qo‘llagan. Bu o‘simlik taxminan 6 ming yil ilgari Afg‘onistondan Xitoyga keltirilgan. 2700 yillardan to eramizga qadar u choy sifatida qo‘llanilgan - imperator Shen Nung o‘zini ma’lumotlarida uni podagra va parishonxotirlik kasalliklariga vosita sifatida qo‘llanilishi kerakligini yozgan [1.244-245].<sup>23</sup>

Giyohvandlik giyohvand moddalarni doimo qabul qilish natijasida vujudga keladi, chunki ushbu xastalik bilan og‘riqan kishining jismoniy va ruhiy holati humorini bosadigan tegishli narkotik modda iste’mol qilishga bog‘liq. Narkomaniya organizmda chuqur o‘zgarishlarga sabab buladi va uni tanazzulga olib keladi. Kasallik asta-sekin rivojlanib borib surunkali davom etadi. Narkotik moddalar dastlab xursandlik, vaqtichog‘lik, hotirjamlik hissini uyg‘otib, kayf qildirishi sababli iste’mol qilinib bora-bora kasallikga aylanadi. Quyidagi ikki holda narkotik moddalarga o‘rganib qolish mumkin. **Birinchi holda** kishi o‘z xohishidan tashqari, e’tiborsizligi natijasida narkotik moddalar humor qiladigan bo‘lib qoladi. Bunday bangilik ko‘pincha vrach buyurgan narkotik moddalarni noto‘g‘ri iste’mol qilish natijasida kelib chiqadi. Sal narsa ta’sir qilib, tashvish kuchayib ketadi, ba’zi kasallar og‘riq, uyqusizlik va dardning boshqa tomonlaridan qutulish maqsadida oxirini o‘ylamay, vrach ko‘rsatmasini ham pisand qilmay, o‘zboshimchalik bilan narkotik modda dozasini oshirib qabul qilishadi. Bunday bemorlar odatdagidek ahvollarining yaxshilanishi

---

<sup>23</sup> Кузнецова В.Н. Социология молодежи. - М. Гардарики 2007. – С. 244-245.



dori tufayli bo‘layotganini sezib, uni ichishni davom ettira boshlaydilar va ko‘pincha ahvollarining og‘irligidan nolib vrachni aldaydilar. Bu zaylda ish tutishning oqibati yomon bulib, narkotik moddalarga unchalik zarurat bulmasa ham, uni qabul qilaveradi, dorining esa organizmga narkotik ta’siri yanada orta boradi va natijada narkotik moddaga moyillik kuchayib, u xumor qiladigan bo‘lib qoladi. Narkotik modda dozasini o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirib borish, uni tez-tez va uzoq muddat qabul qilish narkomaniyaga olib keladi.

**Ikkinchi hol** ongli ravishda kayf qilish maqsadida narkotik moddalarga o‘rganishdir. Narkomaniyaga odatda o‘zini tiya bilmagan, ruhan zaif, irodasi kuchsiz, birovlariga taqlid qiladigan, humorni tarqatishdan boshqa narsani bilmaydigan, o‘ta xudbin kishilargina beriladi. Bunday kishilar o‘z mayllariga qarshi yurolmaydilar. Shuning uchun ularning kayf qilishga moyilliklari kuchli bo‘ladi, bangilik avj olib ketadi. Bu kasallikka uchraganlarda xastalik juda og‘ir kechib, odatda kutilmagan yomon oqibatlariga olib keladi.

Giyohvand moddalar qabul qilinishi inson salomatligiga rahna solib, turli hil asab kasalliklarining kelib chiqishi, nogiron bolalar tug‘ilishi, oilalar barbod bo‘lishi oqibatida farzandlarning yetim qolishiga olib keladi. Buning natijasida esa, nafaqat oilalar, balki butun jamiyat ijtimoiy va iqtisodiy zarar ko‘radi. Dunyo mutaxassis shifokorlarining ta’kidlashlaricha, bolalarning aqliy va jismoniy nuqson bilan tug‘ilishiga eng avvalo alkogol ichimliklar va giyohvand moddalar sabab bo‘layotgan ekan.

So‘nggi yillar mobaynida insoniyat jinoyatchilik, qurolli to‘qnashuvlar, ekologik muammolar, turli xavfli kasalliklar bilan bir qatorda giyohvandlik balosidan ham aziyat chekmoqda. Insonga lazzat, vaqtincha yengil kayfiyat, soxta tasavvurlar bag‘ishlovchi moddalar organizmga shu darajada zarar yetkazadiki, natijada odamning jismoniy va aqliy faoliyati tiklab bo‘lmas darajada shikastlanadi. Ayanchlisi, u o‘limga olib keladi. Tibbiyotchilarning fikriga kura, giyohvand moddalar o‘pka raki, jinsiy zaiflik va ruhiy hastaliklarni yuzaga keltiradi. Giyohvand moddalarga, xususan, heroin, kakoin, psixotropga o‘rganib qolgan kishi uni o‘z vaqtida qabul qilmasa, og‘uga o‘ta kuchli ehtiyoj sezadi. Shu modda dozasini qabul qilgach esa, o‘zini guyo “osmonning yettinchi qavati”da sezadi. Tanada sarxushlik, rohatlanish hissini tuyadi. Aslida esa lahzalik rohat deya inson o‘z ixtiyori bilan halokat tomon qadam qo‘ygan bo‘ladi. Bordi-yu, giyohvandlik moddalari xumori tutib, xuruj qilib qolsa, u holda giyohvand kimsa unga erishish maqsadida har qanday jinoyat-u razilliklardan ham tap tortmaydi. Zotan, butun dunyo osoyishtaligiga rahna solayotgan terrorizmning tag zamirida ham narkobiznes yotibdi desak, mubolag‘a bulmaydi.

Xavotirlisi, giyohvandlikka asosan yoshlar kirib kelmoqdalar. “O‘zbekistonda yoshlar an’anaviy giyohvand moddalardan voz kechib, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar iste’moliga o‘tmoqda, mamlakatda qariyb 5900 nafar giyohvand moddalar iste’mol qiluvchi yoshlar ro‘yxatga olingan”[2]<sup>24</sup>ligini ta’kidladi ichki ishlar vaziri o‘rinbosari. Shuningdek, vazir o‘rinbosari oxirgi to‘rt yilda kuchli ta’sir qiluvchi preparatlar va psixotrop

---

<sup>24</sup> Ёшлар анъанавий гиёҳванд моддалар ўрнига психотроп таблеткаларни истеъмол қилишга ўтмоқда. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/11/narcotic/>



moddalarning noqonuniy aylanmasi hajmi ortib borayotganini ham ta’kidlab o’tdi. 2016 yilda 58 mingta «dorixona narkotiklari»ning noqonuniy savdosiga chek qo’yilgan bo’lsa, 2017 yilda 62,5 ming, 2018 yilda 128 ming, 2019 yilda 365 mingta tabletka va boshqa giyohvand vositalar olingan. 2020 yilning 8 oyi ichida esa 191196 ta tramadol yoki tropikamid tabletkalari olib qo’yilgan.

2020-2022 yillar davomida psixoaktiv moddalar bilan bog’liq 20 ming 857 ta noqonuniy holat aniqlangan [3]<sup>25</sup>. Asosan 15 yoshdan 29 yoshgacha bo’lgan yoshlar o’rtasida bu moddalarni iste’mol qilish kuchayib bormoqda. Bu esa o’z navbatida ota-onalarning farzandlarini nazorat qilmasligidan boshlanadi [4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14]. Yoshlar tabiatiga xos xususiyat shuki, ular hamma narsaga qiziqish bilan qaraydilar. Ko’rgan va eshitganlarini o’zlarida ham sinab ko’rishga harakat qiladilar. Jumladan, ayrimlar turli kimyoviy moddalarni hidlab, kafelarda chilim chekib kayf qila boshlaydilar. “Bitta tortib ko’rsam hech narsa qilmaydi” – degan fikr o’lim sari dastlabki qadam hisoblanadi. Ana shu boshlang’ich bosqichda bebosh yoshlar nazoratga olinmasa, qarovsiz qoldirilsa, qarabsizki, ular tuppa-tuzuk giyohvandga aylanadi-qoladi. Chunki giyohvandlik misoli botqoq bo’lib, botqoqga kirgan odamga yordam qo’li cho’zilmasa botqoq uni o’z domiga tortaveradi. Jamiyat uchun eng xavfli tomoni, yosh-yalang, o’smirlar to’planadigan kafe zallarida giyohvand, psixotrop moddalar savdosi bilan shug’ullanuvchilar ham uchrab turadi.

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlik – o’lim va hayot orasidagi ko’z ilg’amas chegaradir. Agar yoshlarning ma’naviy tarbiyasi kuchsiz bo’lsa bu chegarani yorib o’tishi oson bo’ladi. Bundan biz giyohvandlik hastaligini keltirib chiqaruvchi omillarni ma’naviy tarbiya sohasidagi ojizlikdan izlashimiz kerak degan xulosaga kelamiz. Bu jarayonda yosh yigit-qizlarning irodasi zaifligini e’tiborga olishimiz kerak. Giyohvandlik millat tanlamaydi, balkim irodasi kuchsiz kishigina uning domiga tushib qolishi mumkin. Shunday ekan yoshlarni irodasini mustahkamlash muhim vazifalarimizdan biridir. Ikkinchidan, dorixonalarda sotilayotgan bu dorilarni retsept asosida sotilishini nazorat qilish, kuchli energitik ichimliklarni reklamasini va sotilishiga chek qo’yish maqsadga mavofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кузнецова В.Н. Социология молодежи. - М. Гардарики 2007. – С. 244-245.
2. Ёшлар анъанавий гиёҳванд моддалар ўрнига психотроп таблеткаларни истеъмол қилишга ўтмоқда. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/11/narcotic/>
3. 2020-2022 йиллар давомида психоактив моддалар билан боғлиқ 20 мингдан ортиқ ноқонуний ҳолат аниқланган. <https://uza.uz/uz/posts/>
4. Abdinazarovich, R. D. (2023). SOME COMMENTS ON THE DEVELOPMENT OF MILITARY SOCIOLOGY IN UZBEKISTAN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(5), 646-650.

<sup>25</sup> 2020-2022 йиллар давомида психоактив моддалар билан боғлиқ 20 мингдан ортиқ ноқонуний ҳолат аниқланган. <https://uza.uz/uz/posts/>



5. Abdinazarovich, R. D., Jo'rayevna, N. N., & Saparbayevna, J. N. (2023). MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA IJTIMOY XIZMATNING SHAKLLANISH GENEZISI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(4), 1005-1009.
6. Saparbayevna, J. N., Jo'rayevna, N. N., & Abdinazarovich, R. D. (2023). YOSHLARDA MAS'ULIYAT HISSINI TARBIYALASHNING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI. World of Science, 6(5), 25-28.
7. Juraevna, N. N., & Saparbaevna, J. N. THE ROLE OF FAMILY ON PREVENTING THE YOUTH'S DEVIANT BEHAVIOURS.
8. Abdinazarovich, R. D., Saparbayevna, J. N., & Jo'rayevna, N. N. (2023). OILALARNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI SOTSIOLOGIK TAHLILI (HARBIY XIZMATCHILARNING OILASI MISOLIDIDA). World of Science, 6(5), 29-33.
9. Jo'rayevna, N. N., & Abdumannapovna, M. D. (2023). MUTAXASSISLIK FANLAR MODULINI O 'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. PEDAGOG, 1(5), 605-609.
10. Nosirov, R., Yunusova, N., Nazarova, N., & Shamsiddinova, E. (2023, June). Occupational problems in youth competitiveness. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.
11. RAMATOV, J., BARATOV, R., NAZAROVA, N., KHASANOV, M., & VALIEV, L. MUTUALLY BENEFICIAL INTEGRATION OF TURKIC STATES. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития", (12), 35-39.
12. RAMATOV, J., BARATOV, R., SULTANOV, S., NAZAROVA, N., ERNIYOZOV, U., & VALIEV, L. THE ROLE OF AUROBINDO GHOSH'S CONCEPT OF EDUCATION. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития", (12), 57-60.
13. RAMATOV, J., BARATOV, R., NAZAROVA, N., ERNIYOZOV, U., KHASANOV, M., & VALIEV, L. THE VIEWS AUROBINDO GHOSH OF THE INFLUENCE ANCIENT RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL IDEAS IN INDIA. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития", (12), 61-64.
14. RAMATOV, J., SULTANOV, S., NAZAROVA, N., KHASANOV, M., & VALIEV, L. THE PLACE AND ROLE OF WOMEN IN THE RAILWAY TRANSPORT SYSTEM OF UZBEKISTAN. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития", (12), 49-52.

